OPEN BANKING VA API TEXNOLOGIYALARINING TIJORAT BANKLARI BIZNES-MODELI VA RAQOBAT USTUNLIKLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

Axmedov Toxirjon Hasanjon o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti
axmedov_t@turonbank.uz

Annotatsiya. *Maqolada Open Banking konsepsiyasi va API texnologiyalarining tijorat banklari biznes-modeli hamda raqobat ustunliklarini shakllantirishga ta’siri tadqiq etilgan. O‘zbekistonda raqamli moliyaviy xizmatlar rivojlanishining 2021-2025 yillardagi dinamikasi tahlil qilinib, Open Banking infratuzilmasini bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha mualliflik modeli taklif qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Open Banking, API, ochiq banking, raqamli transformatsiya, tijorat banki, fintex, biznes-model, raqobat ustunligi, raqamli ekotizim.*

Аннотация. *В статье исследуется влияние концепции Open Banking и API-технологий на трансформацию бизнес-моделей коммерческих банков и формирование их конкурентных преимуществ. Проанализирована динамика развития цифровых финансовых услуг в Узбекистане за 2021–2025 годы и предложена авторская модель поэтапного внедрения инфраструктуры Open Banking.*

Ключевые слова: *Open Banking, API, открытый банкинг, цифровая трансформация, коммерческий банк, финтех, бизнес-модель, конкурентное преимущество, цифровая экосистема.*

Abstract. *The article examines the impact of Open Banking and API technologies on the transformation of commercial banks’ business models and the formation of competitive advantages. The development of digital financial services in Uzbekistan during 2021-2025 is analysed, and an author’s phased model for implementing Open Banking infrastructure is proposed.*

Keywords: *Open Banking, API, digital transformation, commercial bank, fintech, business model, competitive advantage, digital ecosystem.*

Kirish

Raqamli transformatsiya bank biznesining an’anaviy chegaralarini o‘zgartirib, raqobatning yangi manbalarini shakllantirmoqda. Ilgari tijorat banklari raqobat ustunligini asosan kapital miqdori, filiallar tarmog‘i, depozit bazasi, kredit portfeli va brend orqali ta’minlagan bo‘lsa, hozirgi bosqichda ma’lumotlardan foydalanish qobiliyati, raqamli platformalarning ochiqligi, tashqi servislar bilan integratsiya tezligi va mijoz uchun yagona raqamli muhit yaratish imkoniyati muhim strategik omillarga aylanmoqda.

Mazkur jarayon Open Banking, ochiq banking konsepsiyasi bilan bevosita bog‘liq. Bazel qo‘mitasi Open Banking’ni mijozning roziligi asosida banklardagi ma’lumotlardan uchinchi tomon provayderlari tomonidan yangi ilovalar va moliyaviy xizmatlarni ishlab chiqishda foydalanish imkonini beruvchi model sifatida tavsiflaydi [1]. Ushbu modelning texnologik asosini application programming interface (API), ya’ni dasturiy interfeyslar tashkil etadi. API bank axborot tizimlari, fintex kompaniyalari va boshqa raqamli platformalar o‘rtasida standartizovan ma’lumot almashinuvini ta’minlaydi.

Open Banking’ning iqtisodiy ahamiyati bank ma’lumotlarini tashqi ishtirokchilarga ochish bilan cheklanmaydi. U bankning qiymat yaratish zanjirini qayta shakllantirib, yopiq biznes-modeldan raqamli ekotizimga asoslangan ochiq biznes-modelga o‘tishni ta’minlaydi. Bunday sharoitda bank barcha xizmatlarni mustaqil ishlab chiquvchi institut emas, balki mijoz, fintex kompaniyalari va boshqa xizmat provayderlarini birlashtiruvchi platformaviy ishtirokchi sifatida faoliyat yurita boshlaydi.

Bank xalqaro hisob-kitoblar bankining 2026 yildagi tadqiqotiga ko‘ra, ochiq moliya tizimlari mijoz roziligi asosidagi ma’lumot almashinuvi orqali axborot asimmetriyasini kamaytirish, bozorga yangi ishtirokchilarning kirib kelishini yengillashtirish, moliyaviy innovatsiyalar va raqobatni kuchaytirish imkonini beradi. Biroq buning uchun ma’lumot almashish protokollarining standartlashtirilishi, tizimlararo muvofiqlik va ishonchli regulyativ baza zarur [2].

Tadqiqotning maqsadi Open Banking va API texnologiyalarining tijorat banklari biznes-modeli hamda raqobat ustunliklariga ta’sir mexanizmini asoslash, O‘zbekiston bank tizimining Open Banking’ga o‘tish uchun shakllangan raqamli imkoniyatlarini statistik jihatdan baholash va milliy sharoitga mos bosqichma-bosqich joriy etish modelini taklif qilishdan iborat.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili, tizimli yondashuv, institutsional tahlil va ilmiy sintez usullaridan foydalanildi.

Open Banking va API texnologiyalarining bank biznes-modeliga ta’siri

An’anaviy bank biznes-modelida mijoz ma’lumotlari, mahsulot ishlab chiqish, tranzaksiya infratuzilmasi va mahsulotni sotish kanallari asosan bitta bank doirasida birlashgan. Bu vertikal integratsiyalangan yopiq model bo‘lib, bank mijoz haqidagi ma’lumotlarning asosiy egasi va ulardan foydalanuvchi sub’ekt hisoblanadi.

Open Banking mazkur arxitekturani o‘zgartiradi. Mijozning roziligi asosida hisobvaraqlar va tranzaksiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar standart APIlar orqali litsenziyalangan tashqi provayderlarga taqdim qilinishi mumkin. Natijada alohida bankning axborot monopoliyasi qisqaradi va banklar raqobati ma’lumotni «egallash»dan uni samarali qayta ishlash hamda mijoz uchun qo‘shimcha qiymatga aylantirish qobiliyatiga o‘tadi.

Jahon banki APIlarni moliyaviy xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida tizimlararo muvofiqlikni ta’minlashning asosiy texnologiyalaridan biri sifatida baholaydi. Standart APIlar tashqi ishlab chiquvchilarning integratsiya xarajatlarini kamaytirib, yangi xizmatlarni bozorga chiqarish vaqtini qisqartirishi mumkin [3].

Bu ta’sirni quyidagi iqtisodiy zanjir orqali ifodalash mumkin:

Open Banking – standart API – bank-fintex integratsiyasi –
yangi raqamli mahsulotlar – mijoz qiymati – raqobat ustunligi.

Biroq Open Banking bank uchun faqat yangi raqobat imkoniyatini emas, raqobat bosimini ham keltirib chiqaradi. Mijoz o‘z ma’lumotlarini boshqa provayderlarga taqdim etish imkoniga ega bo‘lganda xizmatlarni taqqoslash va bankni almashtirish xarajatlari kamayadi. Natijada bankning mavjud mijoz bazasi avtomatik ravishda barqaror raqobat ustunligi bo‘lib qolmaydi.

Shu ma’noda Open Banking ikki tomonlama ta’sirga ega: bir tomondan, banklarga tashqi innovatsiyalarni tez integratsiya qilish va yangi daromad manbalarini shakllantirish imkonini beradi, ikkinchi tomondan esa fintex kompaniyalarining bank qiymat zanjiriga kirib kelishi natijasida raqobatni kuchaytiradi. Bazel qo‘mitasi ham Open Banking sharoitida banklar daromadlari va depozitlarining yangi raqobatchilarga o‘tishi, kiberxavfsizlik, ma’lumotlar maxfiyligi va uchinchi tomon risklari kabi muammolar kuchayishi mumkinligini qayd etadi [1].

Demak, Open Banking’ning bank raqobatbardoshligiga ta’sirini texnologiyaning o‘zi emas, balki bankning APIdan qanday biznes-model sifatida foydalanishi belgilaydi.

O‘zbekistonda Open Banking uchun raqamli iqtisodiy zaminning shakllanishi

O‘zbekiston bank tizimida so‘nggi yillarda raqamli moliyaviy infratuzilma tez sur’atlarda rivojlanmoqda. Ushbu jarayon hozircha Open Banking tizimi to‘liq joriy

etilganini anglatmaydi, ammo ochiq bankingga o‘tish uchun zarur bo‘lgan raqamli talab, masofaviy identifikatsiya, elektron to‘lovlar va fintex ekotizimining shakllanayotganini ko‘rsatadi.

1-jadval

O‘zbekistonda raqamli moliyaviy ekotizimning ayrim ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
To‘lov tashkilotlari tranzaksiyalari hajmi, trln so‘m	53,0	116,0	183,0	333,0	412,4
Elektron hamyonlar soni, mln dona	5,0	8,4	15,6	20,6	24,8
Raqamli identifikatsiyadan o‘tgan mijozlar, mln nafar	–	2,6	6,8	12,2	–
Mobil ilovalar orqali tranzaksiyalar, trln so‘m	–	–	–	397	646

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2021 yilda to‘lov tashkilotlari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 53 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda 116 trln so‘mga, 2023 yilda 183 trln so‘mga va 2024 yilda 333 trln so‘mga yetgan [4].

2025 yilda mazkur ko‘rsatkich 412,4 trln so‘mni tashkil etib, bir yilda 24 foizga o‘sgan. 2021–2025 yillarda to‘lov tashkilotlari tranzaksiyalari hajmi qariyb 7,8 barobarga ko‘paygan. Muallif hisob-kitobiga ko‘ra, ushbu davrda o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati qariyb 67 foizni tashkil etadi.

Bu dinamika bank xizmatlari bozorida bankdan tashqari raqamli provayderlarning iqtisodiy ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi. Ushbu tendensiya Open Banking sharoitida bank–fintex integratsiyasi uchun talab tomonidan shakllanayotgan iqtisodiy zamin sifatida baholanishi mumkin.

Elektron hamyonlar soni ham 2021 yildagi 5 mln tadan 2025 yil yakunida 24,8 mln taga yetgan, ya’ni qariyb 5 barobarga ko‘paygan.

Raqamli identifikatsiya infratuzilmasi ham jadal rivojlangan. 2022 yilda banklar va to‘lov tashkilotlari mobil ilovalari orqali Face ID asosida identifikatsiyadan o‘tgan mijozlar 2,6 mln nafarni tashkil etgan. 2023 yilda bu ko‘rsatkich 6,8 mln, 2024 yil

yakunida esa 12,2 mln nafarga yetgan. Boshqacha aytganda, ikki yil ichida raqamli identifikatsiyadan foydalanuvchilar soni 4,7 barobarga ko‘paygan.

2025 yilda mobil ilovalar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 646 trln so‘mni tashkil etib, 2024 yildagi 397 trln so‘mga nisbatan 62,7 foizga oshgan. Shu davrda bank kartalari soni 68 mln taga, elektron hamyonlar 24,8 mln taga, to‘lov tashkilotlari soni 47 taga yetgan.

Ushbu ko‘rsatkichlar O‘zbekistonda raqamli moliyaviy xizmatlarning masshtablanishini ko‘rsatadi. Biroq ularning o‘zi Open Banking mavjudligini yoki uning raqobatbardoshlikka sababiy ta’sirini isbotlamaydi. Ular, avvalo, ochiq APIlar asosidagi ekotizimni joriy qilish uchun texnik va bozor tayyorgarligining kuchayib borayotganiga ishora qiladi.

Bu farq metodologik jihatdan muhim: raqamli to‘lovlar hajmining o‘sishi Open Banking natijasi emas, balki uni joriy etish imkoniyatini kuchaytiruvchi shart-sharoit sifatida talqin qilinishi lozim.

Open Banking’ning bank raqobat ustunliklariga ta’sir kanallari

Open Banking va APIlarning tijorat banklari raqobat pozitsiyasiga ta’sirini kamida to‘rtta kanal orqali ajratish mumkin.

Birinchi kanal – innovatsiya tezligi

Standart APIlar bankka har bir yangi xizmatni ichki IT-infratuzilmada noldan ishlab chiqish o‘rniga tashqi fintex yechimlarini tez integratsiya qilish imkonini beradi. Natijada mahsulotning g‘oyadan bozorga chiqishgacha bo‘lgan vaqti — time-to-market qisqaradi.

Ikkinchi kanal – operatsion samaradorlik

Bir xil funksiyalarni turli tizimlar o‘rtasida qo‘lda qayta ishlash o‘rniga API asosida avtomatik ma’lumot almashish operatsion xarajatlarni pasaytiradi. Bu ta’sir bankning CIR – xarajatlarning daromadlarga nisbati kabi samaradorlik indikatorlarida aks etishi mumkin.

Uchinchi kanal – mijoz tajribasi

Mijoz bir nechta bank va moliyaviy platformalardagi hisobvaraqlari, to‘lovlari va boshqa xizmatlarini yagona interfeysda boshqarish imkoniga ega bo‘ladi. Bu ma’lumotlarni birlashtirish, personallashtirilgan xizmat va moliyaviy qarorlarni tezlashtirish orqali mijoz uchun qiymat yaratadi.

To‘rtinchi kanal – yangi daromad modellari

Open Banking bankni faqat an’anaviy foiz marjasiga tayanadigan institutdan API xizmatlari, platformaviy komissiyalar, embedded finance va sheriklik mahsulotlari orqali qo‘shimcha daromad oladigan biznes-modelga olib kelishi mumkin.

Shu asosda Open Banking’ning bank raqobat ustunligiga ta’sirini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Open Banking – API standartizatsiya – integratsiya xarajatlarining pasayishi – fintex hamkorlik –innovatsiya va personallashtirish – mijoz qiymati – raqobat ustunligi.

O‘zbekistonda Open Banking’ni joriy etishning institutsional istiqbollari

O‘zbekistonda Open Banking masalasi institutsional kun tartibiga ham kirib bormoqda. 2026 yil yanvar oyida Markaziy bank va Visa vakillari o‘rtasidagi uchrashuvda 2026-2030 yillarga mo‘ljallangan milliy moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish strategiyasi, milliy to‘lov “switch” tizimi, yagona QR standartlari, Open Banking va account-to-account pul o‘tkazmalari xizmatlarini rivojlantirish masalalari muhokama qilingan [6].

Mazkur holat Open Banking’ni O‘zbekiston uchun nazariy konsepsiyadan amaldagi raqamli moliyaviy siyosat yo‘nalishiga o‘tayotgan masala sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Shu bilan birga, Open Banking’ni samarali joriy etish faqat banklarni API ochishga majburlash bilan hal bo‘lmaydi. Standartlashtirilmagan APIlar, turli autentifikatsiya talablari va har bir bank uchun alohida texnik integratsiya tashqi provayderlar uchun yuqori xarajat keltirib chiqaradi. Natijada Open Banking’ning raqobatni kuchaytirish samarasi aksincha faqat yirik texnologiya kompaniyalari foydasiga ishlashi mumkin.

Shu sababli milliy darajada yagona texnik va institutsional arxitektura zarur.

O‘zbekiston uchun Open Banking’ni joriy etishning mualliflik modeli

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, O‘zbekistonda Open Banking tizimini uch bosqichda tashkil etish taklif qilinadi.

2-jadval

O‘zbekistonda Open Banking’ni bosqichma-bosqich joriy etishning mualliflik modeli

Bosqich	Asosiy choralar	Kutiladigan iqtisodiy natija
I. Normativ va texnik standartlashtirish	yagona Open API standarti, mijoz roziligini boshqarish mexanizmi, TPPlarni akkreditatsiya qilish, yagona xavfsizlik talablari, regulatory sandbox	integratsiya xarajatlari va institutsional noaniqlikni kamaytirish

II. Bank–fintex integratsiyasi	hisobvaraq ma’lumotlari APIlari, payment initiation, account-to-account to‘lovlari, yirik banklar va litsenziyalangan fintexlar piloti	yangi mahsulotlar, tranzaksiya xarajatlarining pasayishi, raqobatning kuchayishi
III. Open Finance ekotizimi	mikromoliya, sug‘urta, investitsiya va boshqa moliyaviy ma’lumotlarni bosqichma-bosqich integratsiyalash	personallashtirilgan moliyaviy ekotizim va yangi biznes-modellar

Manba: muallif ishlanmasi.

Birinchi bosqichda asosiy vazifa APIlarning texnik standartini belgilashdan oldin ma’lumotlar huquqiy rejimi va ishtirokchilar mas’uliyatini aniqlashdan iborat bo‘lishi kerak. Mijoz ma’lumotni kimga, qaysi muddatga va qanday maqsadda taqdim etayotganini nazorat qila olishi zarur.

Shu bilan birga, API xavfsizligida kuchli autentifikatsiya, tokenizatsiya, ma’lumotlarga minimal zarur hajmda ruxsat berish va API chaqiruvlarini doimiy monitoring qilish talablari belgilanishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchi bosqichda account information service va payment initiation xizmatlaridan boshlash mumkin. Bunda banklar va litsenziyalangan fintex tashkilotlari uchun yagona sandbox muhiti tashkil etilishi tashqi ishlab chiquvchilarning integratsiya xarajatlarini kamaytiradi.

Uchinchi bosqichda Open Banking’dan Open Finance modeliga bosqichma-bosqich o‘tish taklif etiladi. Jahon banki Open Finance’ni mijozning moliyaviy ma’lumotlar ustidan nazoratini kuchaytirib, ularni boshqa provayderlar bilan ixtiyoriy almashish orqali axborot asimmetriyasi va xizmat ko‘rsatuvchini almashtirish xarajatlarini kamaytiruvchi mexanizm sifatida baholaydi [3].

Muallif fikricha, O‘zbekiston sharoitida Open Banking tizimining natijadorligini APIlar soni bilan emas, iqtisodiy natija ko‘rsatkichlari orqali baholash zarur. Ular qatoriga API orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar ulushi, bank–fintex sherikliklari soni, yangi raqamli mahsulotni bozorga chiqarish muddati, tranzaksiya birligiga to‘g‘ri keladigan xarajat, raqamli kanallarda mahsulot sotish ulushi, mijozni jalb qilish xarajati va API xizmatlarining texnik barqarorligini kiritish mumkin.

Shunda Open Banking texnologik loyiha emas, bank raqobatbardoshligini boshqarish instrumenti sifatida baholanadi.

Open Banking’da risklar va raqobat muvozanati

Open Banking’ning ijobiy iqtisodiy samarasi avtomatik tarzda yuzaga kelmaydi. Ma’lumot almashish ishtirokchilari ko‘payishi bilan kiberxavf yuzasi ham kengayadi. Bank ma’lumotlarining uchinchi tomon provayderlarida saqlanishi yoki qayta ishlanishi ma’lumotlar sizib chiqishi, ruxsatsiz foydalanish va operatsion uzilish xavfini oshirishi mumkin [1].

Bundan tashqari, ma’lumotlar bozorini ochish raqobatni kuchaytirishi bilan birga, katta ma’lumot resurslariga ega BigTech platformalarning ustunligini yanada oshirish xavfini ham tug‘diradi. Shu sababli Open Banking tartibga solinishi bir vaqtning o‘zida innovatsiya, raqobat, axborot xavfsizligi va iste’molchilar huquqlarini muvozanatlashtirishi lozim.

O‘zbekiston bank tizimida raqamli operatsiyalarning jadal o‘sishi bu masalani yanada dolzarb qiladi. 2024 yilda onlayn kreditlarni rasmiylashtirish bilan bog‘liq firibgarliklarning oldini olish maqsadida qo‘shimcha identifikatsiya mexanizmi joriy qilinib, 28 138 ta holatda 304,1 mlrd so‘mlik operatsiyalar to‘xtatilgan.

Ushbu fakt raqamli ochiqlikning o‘sishi xavfsizlik arxitekturasining parallel ravishda takomillashtirilishini talab qilishini ko‘rsatadi.

Xulosa

Open Banking va API texnologiyalari bank raqobatining yangi institutsional va texnologik modelini shakllantirmoqda. Ularning asosiy iqtisodiy ahamiyati bank ma’lumotlarini ochishning o‘zida emas, balki ma’lumotlar, fintex innovatsiyalari va moliyaviy xizmatlarni yagona raqamli ekotizimda integratsiyalash imkoniyatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil natijalari O‘zbekistonda Open Banking uchun zarur bo‘lgan raqamli bozor infratuzilmasi jadal shakllanayotganini ko‘rsatdi. 2021–2025 yillarda to‘lov tashkilotlari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 53 trln so‘mdan 412,4 trln so‘mgacha, elektron hamyonlar soni esa 5 mln tadan 24,8 mln tagacha oshdi. 2025 yilda mobil ilovalar orqali tranzaksiyalar 646 trln so‘mni tashkil etdi. Bu tendensiyalar ochiq APIlarga asoslangan bank–fintex integratsiyasi uchun iqtisodiy va texnologik zamin mavjudligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotda Open Banking’ning raqobat ustunligiga ta’siri «API standartizatsiyasi – integratsiya xarajatlarining pasayishi – bank–fintex hamkorligi – innovatsion mahsulotlar – mijoz qiymati – raqobat ustunligi» zanjiri orqali asoslandi.

O‘zbekiston uchun Open Banking’ni normativ-texnik standartlashtirish, bank-fintex integratsiyasi va keyinchalik Open Finance ekotizimiga o‘tishdan iborat uch bosqichli model taklif etildi. Ushbu yondashuvda Open Banking samaradorligini APIlar soni emas, balki integratsiya xarajatlari, mahsulotlarni bozorga chiqarish tezligi,

raqamli sotuvlar, mijozni jalb qilish xarajatlari va API orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar kabi iqtisodiy KPIlar asosida baholash maqsadga muvofiq.

Shu nuqtai nazardan, Open Banking O‘zbekiston tijorat banklari uchun oddiy IT-innovatsiya emas, balki biznes-modelni transformatsiya qiluvchi va uzoq muddatli raqobat ustunliklarini shakllantiruvchi strategik mexanizm sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Basel Committee on Banking Supervision. Report on Open Banking and Application Programming Interfaces. – Basel: Bank for International Settlements, 2019.

2. Eroglu H., Cornelli G., Frost J., Rühmann F., Shreeti V. Opening Doors to Open Finance: Evidence from the International Experience. – BIS Papers No. 168. – Basel: Bank for International Settlements, 2026.

3. World Bank. Digital Finance Inclusion: Open Finance, Interoperability and Competition. – Washington, D.C.: World Bank, 2025–2026.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 202-2025 yillardagi faoliyati to‘g‘risida hisobot. – Toshkent, 2026.

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Central Bank of Uzbekistan and Visa Discuss Fintech and Digital Payments. –22 January 2026.

6. Basel Committee on Banking Supervision. Literature Review on Financial Technology and Competition for Banking Services. – BCBS Working Papers No. 43. – Basel: BIS, 2024.